



XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 9-avgust

VI-68-109-8-108-K/24

Oltinsoy tumani

Oltinsoy tumani mahalliy budjetining 2024-yil II-chorak yakuniga ko'ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining "Davlat budjeti to'g'risida"gi 2022-yil 30-dekabrda 813-sonli Qonunining 13-moddasiga muvofiq tuman budjetining 2024-yil II-chorak yakuniga ko'ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'laridan foydalanish bo'yicha Xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining "Davlat budjeti to'g'risida"gi 2022-yil 30-dekabrda 813-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasiga muvofiq mahalliy budjetlarining qo'shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo'yilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman budjetining joriy yil II-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi **2 994 000 000** so'm hisobidan quyidagi yo'nalishlarga;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprelda PQ-5072-son qarori va va 2022-yil 25-oktabrda PQ-409 son Qaroriga muvofiq jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun 30 foizi 898 200 000 so'm mablag' tuman hokimligi huzurida ochilgan tashabbusli budjet jamg'armasiga;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2020-yil 8-oktabrda Jamiyatda ayollar va yoshlarning o'rnini oshirish hamda bandligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida (79-son bayonning 12-bandi) "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" ga kiritilgan yoshlar va ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida har chorakda daromadlarning xarajatlardan oshirib bajarilgan qismi mablag'lari hisobidan kamida 15 foizi "Yoshlar daftari"ga kiritilgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan "Yoshlar daftari" jamg'armasiga 200 000 000 so'm;

- tuman hokimligiga axborot internet xizmati uchun 61 000 000 so'm;

- tuman hokimligiga pochta markalari sotib olish uchun 5 000 000 so'm;

- tuman hokimiyatining ma'muriy binosini qo'riqlash xizmatiga 100 000 000 so'm;

-tuman hokimiyatiga xizmat avtomashinalariga qo'shimcha yoqilg'i moylash xarajatlari uchun 50 000 000 so'm;

- tuman hokimiyatiga xizmat avtomashinalariga texnik xizmat ko'rsatish uchun 100 000 000 so'm;

-tumani hokimligiga tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari Mamarajabov Raxmat Xoliyorovichga bir oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun 5 000 000 so'm;

-tuman hokimiyatiga muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarga o'quv qurollari va sovg'alar uchun 45 000 000 so'm;

-tuman hokimiyatiga "Yakkatut" mahallasida yashovchi boquvchisini yo'qotgan fuqaro Buronov Quvonchbekning xonadonini ta'mirlashda zarur bo'ladigan qurilish materiallari sotib olish uchun 19 000 000 so'm;

- tuman hokimiyatiga tumandagi "Yangi O'zbekiston" istirohat bog'idagi amfiteatr binosini ta'mirlashda zarur bo'ladigan qurilish materiallari sotib olish uchun 107 300 000 so'm;

- tuman hokimiyatiga tumandagi "Xo'jaipok" sanatoriysidan shartnoma asosida yuzaga kelgan qarzdorlik uchun 33 225 000 so'm;

- tuman hokimiyatiga 2024-yilda "Yashil makon" umumilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan "Mo'minqul" mahallasida tashkil etilgan "Hokimlik bog'i"ga daraxt ko'chatlari sotib olish uchun 20 800 000 so'm;

- tuman hokimiyatiga "To'xtamish" mahallasigada "Obod xonadon– obod ko'cha – obod mahalla" mezonlari doirasida amalga oshiriladigan qurilish va ta'mirlash ishlari uchun qurilish materiallari sotib olish uchun 95 000 000 so'm;

- tuman hokimiyatiga mavjud turniketga kamera, telefon va qo'shimcha jihozlar o'rnatishdan yuzaga kelgan qarzdorlik uchun 250 000 000 so'm;

-tuman hokimiyatiga davlat tilida ish yuritish bo'yicha viloyat malaka oshirish markazida tuman hokimligi xodimlari (F.Ibragimov, A.Ortiqov va R.Mamarajabov)larning o'qish pulidan yuzaga kelgan qarzdorlik uchun 3 539 000 so'm;

-tuman hokimiyatiga tuman hokimning 2024-yil 2-martdagi 32-8-108-F/24-sonli farmoyishiga asosan hokim o'rinbosarlarining faoliyatini (EMSK) eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlariga ko'ra yuqori natijalarga erishgan tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari, tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i Abdurayimov Boxodir Raxmatullayevich, tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari Xudayqulov Hasan Rashitovich, tuman hokimining o'rinbosari oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Xidirova Malika Maxamadovnalarga mahalliy budjetning orttirib bajarilgan qismlari yoki qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan keyingi 6 oylik davri uchun tegishli ish haqiga nisbatan 50 % (ellik foiz) miqdorida ustama 48 038 000 so'm;

- tuman hokimiyatiga Boysun tumanida o'tkazilgan "Boysun bahori" xalqaro festivaliga olingan gul ko'chatlaridan va tadbirlaridan yuzaga kelgan qarzdorlik uchun 66 000 000 so'm;

- tuman hokimligiga tuman hokimligi ma'muriy binosining fasad qilish uchun kerak bo'ladigan qurilish materiallari uchun 190 300 000 so'm;

– Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyatiga "Eng yaxshi ijtimoiy tashabbus" nomli Respublika ko'rik-tanlovining tuman bosqichi tadbirlarini o'tkazish uchun 3 000 000 so'm;

-tuman hokimligiga tuman hokimligining foydalanilmay turgan qismidan zamonaviy issiqxona qurish uchun qurilish materiallari uchun 55 000 000 so'm;

-tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga tuman markazidan kesib o'tuvchi Hazarbog' - Oqqapchig'ay kanalining atrofiga to'siq o'rnatishda kerak bo'ladigan qurilish materiallari va tungi yoritish tizimi uchun chiroqlar va jihozlar sotib olish uchun 85 000 000 so'm;

-tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga tumandagi ichki ko'chalarni toshlash hamda mahallalarda obodonlashtirish ishlarini tashkil etish maqsadida dizel yoqilg'isi olish uchun 30 000 000 so'm;

-tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga tumandagi mahallalarning infratuzilmasini yaxshilash maqsadida sement mahsuloti sotib uchun 85 000 000 so'm;

tuman hokimligiga tumandagi mahalla faollarining oldiga qo'yilgan soliq va boshqa ko'rsatkichlarni namunali bajargan mahallalarning obodonlashtirish va infratuzilmasini yaxshilash maqsadida zarur bo'ladigan qurilish mahsulotlari sotib uchun 50 000 000 so'm pul mablag'lari ajratilsin.

3. Tuman budjetining joriy yil II-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan hisobot berib borilsin.

4. "Xalq va hayot" gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

5. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlanganligi yuzasidan mutasaddi tashkilotlar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bo'yicha yozma axborot berib borish yuklatilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Q.Turdiyev) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



MAXMATRAYEMOV
BAXROM OMONOVICH